

# **BUXORO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT**

*2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



### Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

**31 815**

117,2 %



### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

**30 089**

117,1 %



### Yangi tashkil etilgan korxonalar (2021- yilda)


**3 758**

120,4 %

Mamlakatimizda qulay ishbilar monlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bora-sida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rniда, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlash-tirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2021-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)

4



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar- iyul oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar- iyul oylarida, birlikda)




# Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

6



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni  
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **17,8** foizga oshdi



■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik,  
chovachilik, ovchilik va bu  
sohalarda xizmat ko'rsatish  
■ O'rmon xo'jaligi  
■ Baliq xo'jaligi




# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

7



*Jami faoliyat  
ko'rsatayotgan sanoat  
korxonasi va  
tashkilotlarning  
umumiyligi o'tgan  
yilning shu davriga  
nisbatan **21,8** foizga  
oshdi*



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



139



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

4 543



Ishlab chiqarish sanoati

21



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

83



Suv bilan ta'minlash,  
kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig'ish va  
utilizatsiya qilish

2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 4 786 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 121,8 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 121,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,9 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 112,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,1 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 123,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 153,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,7 %) o'sishidir.

# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,7 foizga oshdi**




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**9,8**  
foizga oshdi



## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



**12,2**  
foizga oshdi





## Oilaviy korxonalar



**23,5**  
foizga oshdi



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




## Xususiy korxonalar



# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



# Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

10

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

696



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

20



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

12



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



375

yashash bo'yicha xizmatlar



1 934

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 2 309 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 116,1 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 119,8 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 83,8 %), yashash bo'yicha xizmatlarning- 100,2 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 16,2 %) o'sishidir.

## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra 3 376 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 952 taga yoki 132,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 122 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 760 taga yoki 132,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar- iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 572 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 77 taga yoki 88,1 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

13



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra 330 tani tashkil etib, ulardan 324 tasi yoki 98,2 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 28 taga yoki 109,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar- iyul oylarida viloyatimizda 37 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar- iyul oylarida, birlikda)



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

14



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	85	119	234	292	324
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1	5	20	20	30
Sanoat	59	68	106	123	132
Qurilish	3	5	22	28	33
Savdo	9	19	44	63	71
Tashish va saqlash	-	1	2	6	5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	10	18	23	23
Axborot va aloqa	1	-	1	1	1
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	2	4	6	7
Boshqa turlar	5	9	17	22	22

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)


15

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>324</b>	<b>194</b>	<b>130</b>
<b>Buxoro shahar</b>	<b>168</b>	<b>89</b>	<b>79</b>
<b>Kogon shahar</b>	<b>14</b>	<b>12</b>	<b>2</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>Olot</b>	<b>7</b>	<b>2</b>	<b>5</b>
<b>Buxoro</b>	<b>20</b>	<b>16</b>	<b>4</b>
<b>Vobkent</b>	<b>6</b>	<b>4</b>	<b>2</b>
<b>G'ijduvon</b>	<b>11</b>	<b>8</b>	<b>3</b>
<b>Kogon</b>	<b>27</b>	<b>20</b>	<b>7</b>
<b>Qorako'l</b>	<b>7</b>	<b>5</b>	<b>2</b>
<b>Qorovulbozor</b>	<b>12</b>	<b>6</b>	<b>6</b>
<b>Peshku</b>	<b>19</b>	<b>8</b>	<b>11</b>
<b>Romitan</b>	<b>11</b>	<b>7</b>	<b>4</b>
<b>Jondor</b>	<b>14</b>	<b>11</b>	<b>3</b>
<b>Shofirkon</b>	<b>8</b>	<b>6</b>	<b>2</b>

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 168 ta (umumiyligi miqdorida ulushi 51,9 %), Kogon tumani 26 ta (8,0 %), Peshku tumani 19 tani (5,9 %), Kogon shahar 14 ta (4,3 %), Buxoro tumani 20 ta (6,2 %), hamda Jondor tumanlarida 14 tani (4,3 %) tashkil etadi.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning  
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**  
(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

16



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

17




2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Buxoro shahri (29,3 %), G'ijduvon(10,6 %), Romitan(8,2 %), Buxoro (7,7 %), Jondor (6,6 %), Peshku (6,1 %), Shofirkon(6,0 %), Kogon (5,2 %), Qorako'l (5,3 %), Vobkent (5,0 %), Kogon shahar (4,1 %), Olot (3,5 %), Qorovulbozor (2,4 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.


## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil yanvar- iyul oylarida, birlikda)

2021- yilning yanvar- iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Buxoro shahri (24,9 %), G'ijduvon (9,7 %), Buxoro (9,1 %),Romitan (8,6 %), Peshku (5,3 %), Kogon (5,6 %), Jondor (8,3 %), Vobkent (5,6 %), Shofirkon (6,7 %), Qorako'l (5,8 %), Olot (4,5 %), Qorovulbozor (2,5 %) tumanlari va Kogon shahar (3,3 %), ulushiga tegishli.



# Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi soni (2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Buxoro shahri (30,2 %), G'ijduvon (10,4 %), Romitan (8,5 %), Buxoro (8,0 %), Jondor (6,8 %), Peshku (5,8 %), Shofirkon (5,7 %), Kogon (5,4 %), Vobkent (5,0 %), Qorako'l (4,7 %), Kogon shahar (4,0 %), Olot (3,0 %), Qorovulbozor (2,4 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar- iyul oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshiravgustotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Buxoro viloyati**  
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
**Tel.: (65) 223-83-20**